

**Omonova Dildora Nekmurodovna**

Xalqaro Osiyo universiteti,

Pedagogika va Psixologiya kafedrasи

dotsenti,(PhD)

---

## **BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLIKLARIDAGI MASHQLARNING NAZARIY TAHLILI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bevosita boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarida berilgan mashqlarning tasnifi hamda ularning turlari bevosita mashqlarning bajarish tartibi haqida ham ma’lumot keltirilgan. Shuningdek ta’lim mazmuni va uning bugungi kundagi ahamiyati haqida ham fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** mashq, topshiriq, darslik, til va nutq, kommunikativ mashqlar, nokomunikativ mashqlar, reproduktiv mashqlar;

### **КЛАССИФИКАЦИЯ УПРАЖНЕНИЙ В УЧЕБНИКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА ДЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**Аннотация:** В статье представлена информация о классификации упражнений, представленных в учебниках родного языка для начальных классов, а также их видах и порядке выполнения упражнений. Также они обсудили содержание образования и его значение сегодня.

**Ключевые слова:** упражнение, задание, учебник, язык и речь, коммуникативные упражнения, некоммуникативные упражнения, репродуктивные упражнения;

---

**Kirish:** Ta’limga tizimiga berilayotgan e’tibor, o‘quvchini erkin fikrlashga o‘rgatish doimo dolzarb va bugungi kunda yanada dolzarb bo‘lgan masalalardan biri hisoblanadi. O‘quvchning mustaqil fikrash ko‘nikmasini rivojlantish uchun asosan ona tilini o‘qitish juda muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblangan. Ona tili darsliklarini bugungi kunda zamon talablariga javob beradigan yangi avlodni, avvalo, unda berilgan o‘quv topshiriqlari o‘quvchini faol ishlashga, shuningdek, mustaqil va ijodiy fikr yuritishga o‘rgatadigan shaklda tuzilmog‘i zarur va shart hisoblanadi. Shuningdek ushbu darsliklarda berilgan mashq va topshiriqlar bevosita o‘quvchini mustaqil fikrlay olishini rivojlantirish uchun xizmat qilishi zarur hisoblanadi. Xo‘s amaldagi boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarida berilgan mashqlar bugungi kundagi zamon talablariga javob beradimi degan savolga javob izlash maqsadida biz ona tili mashqlarini tahlil qilishga qaror qildik.

**Asosiy qism.** “Pedagogik insklapediyasida” mashqqa berilgan ta’rifning ancha takomillashgani va ta’lim sohasiga moslashtirilgan shaklini ko‘rish mumkin;

Mashq (arabcha-husnixat, rasm chizish uchun namunalar) biror faoliyatni puxta o‘zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida ko‘p marotaba takrorlashdir. Demak mashq so‘zining lug‘aviy ma’nosidan anglashimiz mumkinki, mashq bevosata o‘quvchining bilim, ko‘nikma hamda malakasini shakllantirish uchun xizmat qiladigan vosita hisoblanadi<sup>1</sup>.

E.I.Passov esa “Mashqlarni til va nutq mashqlariga bo‘lish til va nutqning bir butunligiga nisbatan olganda notabiyyidir” deb hisoblab, har qanday mashqlar bevosita kommunikativ,

lingistik va psixologik xususiyatlariga ega degan fikrni ilgari surgan edi. Uning fikricha, “har qanday grammatic ko’nikmaga qaratilgan mashq ham nutqqa oid xususiyat – kommunikativlikka ega bo’lishi shart, chunki o’zaro fikr almashish nutqda o’z-o’zidan grammatic shakllarni qo’llashni taqozo etadi. Grammatic ko’nikmalarsiz o’zga tilda fikr ifodalash mumkin emas, shu bois “mashqlarni til va nutq mashqlariga ajratish grammatic ko’nikmalar hosil qilishda samarali natija bermaydi”<sup>2</sup>.

Bizga tarixan ma’lumki jahon ta’lim tizimida ikkinchi til ta’limida kommunikativ va nokommunikativ mashqlar turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. E.I.Passov fikricha, kommunikativ mashqlar haqiqiy yoki shartli muloqot vaziyatini yuzaga keltirishni talab etadi. Haqiqiy kommunikativ mashqlar bevosita muloqot paytida yuzaga keladi.

R.Tolipovaning fikricha, so’z va iboralar yarim ijodiy (reproduktiv) mashqlar natijasida o’zlashtirib olingandan so’ng, bu so’zlarni mavzu bo’yicha talab qilingan grammatic qurilmalar tarkibida erkin qo’llashga o’rgatuvchi ijodiy (produktiv, mahsuldor) mashqlar beriladi. Shu tarzda topshiriqlarda o’zlashtirilgan so’z va grammatic qurilmalarni muayyan vaziyatlarda nutqda qo’llashga o’rgatiladi. So’nggi ijodiy tarzdagi vaziyatli topshiriqlar o’quvchilarda har bir mavzu bo’yicha o’z fikrini mustaqil og’zaki va yozma ravishda ifoda etish bo’yicha ilk ko’nikmalarni hosil qilish uchun shart-sharoit yaratadi<sup>3</sup>.

Professor G.A. Pristupa tomonidan taklif sifatida quyidagi mashqlar taqdim etilgan:

- tayyorlov mashqlar;
- tasviriy mashqlar;
- takrorlovchi
- umumlashtiruvchi mashqlar;
- ijodiy mashqlar.

O’rganilgan tahlillarimiz natijasida, ona tili darsliklarida biz o’quvchining nutqini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni bajarishga e’tibor qaratmaymiz. Lekin jahon ta’lim tizimida berilgan mashq va topshiriqlar asosan o’quvchining kreativ fikrlashiga va nutqini rivojlantirishga qaratilgan. Ona tili darsliklarida berilgan mashqlar asosan bilim va ko’nikmalarni asosiy vositasi hisoblanadi. Shuni inobatga olib darsliklarda berilgan mashqlar tizimla va tartibli bo’lishi kerak.

**1. Propaedevtik yoki tayyorgarlik mashqlari.** Bu mashqlarning maqsadi o’quvchilarga materialni birlamchi idrok etish, masalan, so’zning semantik ta’rifini berish, uni lisoniy bo’lmagan voqeiy bilan bog’lash; orfoepiya va imlo xususiyatlarini tushuntirish.

**2. Tasviriy mashqlar.** Mashqlarning maqsadi o’rganilayotgan hodisaning nutqda qanday faoliyat ko’rsatishi va uni qanday aniqlash mumkinligini ko’rsatib berishdan iborat.

**3. Asosiy mashqlar.** Bu mashqlar natijasida bolalar paradigmatik bog’lanishlarni o’zlashtiradilar: o’rgangan narsalarini amalda qo’llay olish ko’nikmasini rivojlantiradilar.

**4. Takrorlanuvchi va umumlashtiruvchi mashqlar.** Mashqlarning maqsadi materialning boshqa material bilan munosabatlarida o’zlashtirilishini ta’minlashdan iborat. Bu turdag‘

mashqlar o’z ichiga og’zaki va yozma shakllarni oladi, bir mavzu bo’yicha so’zlarni tanlashga qaratiladi.

**5. Ijodiy mashqlar.** Ushbu mashqlarning maqsadi o’rganilayotgan til materialini bog’lanishli nutqda qo’llashni o’rgatish, o’quvchiga taklif etilgan mavzuda (og’zaki va yozma ravishda) gapirish, o’z nutqida tanish so’z birikmalaridan foydalanish va uning leksik va grammatik xususiyatlarini o’rganishni namoyish etishdan iborat. Asosiy ijodiy faoliyat-taqdimot va insho. Aqliy faoliyatning xususiyatiga qarab analitik, sintetik va analitik-sintetik mashqlar mavjud.

Mashqlar odatda ikki asosiy xususiyat-maqsad va unga erishish vositasi sifatida tavsiflanadi.

Bugungi kunda ona tili darsliklarida berilgan mashqlar til sathlarini o‘qitish nuqtayi nazaridan ham bir necha turlarga bo‘linadi:

### **1. Fonetik va grafik mashqlar.**

Ushbu mashqlar asosan o‘quvchining tovush va harflarni ajratish, ularni yozuvda to‘g’ri ifodalash uchun qo‘llaniladi.

-so‘zlarni alifbo tartibda joylashtirish

-tanlangan so‘zlarning tovush qiymatini aniqlash

-tovush va harflarni farqini anglash;

-tovushlarga mos kelmaydigan harflarni aniqlash;

Bunday mashqlar asosan o‘quvchilarni so‘zlarni o‘zaro farqlash, so‘zlarni o‘zaro farqlash, so‘zlarni umumlashtirish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili 2-sinf darsligining uchunchi qism 9-sahifasida bevosa o‘quvchining fonetik va grafik ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni ko‘rishimiz mumkin;

**2-mashq.** Gaplarni ko‘chiring.Ikkita so‘z bir-biriga qo‘shilishidan paydo bo‘lgan yangi so‘zlarni namunada ko‘rsatilgan kabi ajratib yozing.

**1.Hamma bolalar muzqaymoqni yaxshi ko‘radi.**

**2.Tuyaqush-yer yuzidagi eng yirik qush.**

**3.Ta’til vaqtida tomorqada mehnat qildim.**

Bevostida ushbu mashqni dastlab o‘qituvchi o‘quvchi ikki so‘zlar qo‘shiamsi qanday hosil bo‘lishini tushuntiradi.So‘ngra ikki so‘zni qo‘shilmasidagi so‘zlarni ajratib olishlarini o‘quvchiga topshiriq beradi, so‘ngra doskaga o‘quvchilar tomonidan gaplar yoziladi va ostiga chiziladi.

### **2.Leksik va frazalogik mashqlar;**

Ushbu mashqlar orqali asosan o‘quvchida so‘z boyligini oshirishga qaratilgan mashqlar hisoblanadi. Ushbu mashqlarni bajarish jarayonida bevosa o‘quvchilarning frazelogiya va so‘z

o‘rtasidagi farqlarni tushunib boradi. Darslikda berilgan mashqlarni bevosita quydagi tahlillar asosida ko‘rishimiz mumin;<sup>4</sup>

- frazalogik iboralarni aniqlovchi mashqlar;
- o‘quv izohli lug‘ati bian ishlash (kasb hunarga oid so‘zlar, atamalarni) aniqlash;
- sinonim antonimlarni aniqlash;
- o‘quvchi tanlagan so‘zlarini ma’nosini aniqlash uchun lug‘atdan foydalanish;
- mashqdagi so‘zlarning lug‘aviy va ko‘chma ma’nolarini aniqlash;
- gapdagi va so‘zdagi imloviy xatoliklarni toppish;
- matnda berilgan iboralarni so‘zga aylantirib tushuntirish;

### **3.Morfologik mashqlar.**

Darslikda berilgan morfologik mashqlarni bajartirish orqali o‘quvchida bevosita tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llay olish, shuningdek imlo qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qila olamiz. Buning uchun darslikda quydagi mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- berilgan so‘zlarni imlosi va talaffuzini izohlash;
- qo‘sib yoziladigan so‘zlarga e’tiborli bo‘lish;
- chiziqcha bilan so‘zlarni aniqlash va alohida yozish;
- berilgan matnda xató yozilgan, yozilishi va talaffuzi bir biridan farq qiladigan so‘zlarni yozish;

Ushbu qoidalarga amal qilish orqali biz o‘quvchida bevosita so‘zlarni to‘g‘ri yozish va qoidalarga amal qilishini yanada soddarroq usulda yetkazib olishimiz mumkin.

### **4. Sintaktik mashqlar:**

Sintaktik mashqlarni bajartirish orqali o‘quvchida bevosita gaplarning turlari, soda va qo‘shma gaplar ularning ifodalanishi kabi tushnchalarni bilib oladilar.

- gaplarni so‘roq, buyruq, istak ohangida o‘qish va tallaffuziga e’tibor berish;
- sodda gaplarni qo‘shma gaplarga aylantiring;
- nuqtalar o‘rniga kerakli tinish belgilarini qoying;
- matnda ishlatilgan tinish belgilarini izohlang;
- matndagi nuqtalar o‘rniga mos keadigan tinish belgilarini qoying;

Ushbu topshiriqlarni bajartish orqali bevosita biz o‘quvchida sintaktik tushunchalarni yanada yaxshi tushunishlari uchun zamin hozirlaymiz.

M.Usmonova tomonidan tuzilgan “Mashqlar to’plami”da berilgan mashqlar asosan grammatik malaka hosil qilishga qaratilgan bir tilli mashqlardan iborat bo’lsa-da, 12ta mashqdan iborat variantlar majmuasining oxirgi mashqlariga bog’lanishli matnlar va tarjima mashqlari kiritilgan bo’lib, ular o’quvchilarning so’z boyligini, grammatik mavzularni qanchalik puxta o’zlashtirganliklarini aniqlash, egallangan bilim va ko’nikmalarni og’zaki va yozma nutqda to’g’ri qo’llay olishlarini tekshirib ko’rishga qaratilgan topshiriqlar berilgan.

**Xulosa:** Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda boshlang’ich sinf o’quvchilariga mashqlarni bajartirish orqali bevosita ularnimng og’zaki va yozma ko’nikmasini ham shakllantirish uchun xizmat qilishi kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Ruziyeva, M. Y. (2020). About color symbols in folklore. Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125 VOL, 7.
2. Ruziyeva, M. Y., & Aslonova, S. S. (2021). Theoretical and Practical Foundations of Teaching Folklore In Primary School. Middle European Scientific Bulletin, 10.
3. [Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature](#)  
MY Ruziyeva, S Lobar
4. Yoqubovna, R. M. (2017). Expression of Attitude to Colors in Turkic National Ritual Songs. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 6(1), 54-68.
5. Yokubovna, R. M. (2020). About color symbols in folklore. JCR, 7(17), 461-466.
6. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.
7. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(6), 47-51.
8. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). COLOR SYMBOLISM IN UZBEK FOLKLORE. Theoretical & Applied Science, (5), 277-284.
9. Ruzieva, M. Y. (2022). SYMBOLISM OF MYTH, SYMBOL AND COLOR. Ann. For. Res, 65(1), 2719-2722.
10. Ruzieva, M. (2016). Colour and its psychoanalytical interpretation in folklore. Язык и культура (Новосибирск), (23), 127-130.
11. Xaqqulova, D. (2024). ABDURAHMON GO ‘ZAL-YASSAVIYSHUNOS. PEDAGOG, 7(6), 8-15.
12. Xaqqulova, D. (2024). ADABIYOTSHUNOS OLIM ABDURAHMON GO ‘ZALNING TADQIQOTLARI XUSUSIDA. PEDAGOG, 7(5), 548-555.
13. XAQQULOVA, D. (2023). BADIYLIK MASALALARI TADQIQIDA OLIM MAHORATI. Наука и технология в современном мире, 2(5), 5-11.
14. Abduvasiyevna, X. D. (2024). SO ‘Z TUZILISHI VA SO ‘Z YASASH. The latest pedagogical and psychological innovations in education, 1(2), 261-266.
15. Abduvasiyevna, X. D. (2024). NUTQ MADANIYATI VA OG ‘ZAKI MULOQOT. The latest pedagogical and psychological innovations in education, 1(2), 255-260.
16. Abduvasiyevna, X. D. (2024). MATN TAHLILI VA MAZMUNNI TUSHUNISH. The latest pedagogical and psychological innovations in education, 1(2), 279-284.